

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



«BANK - MOLIYA XIZMATLARI» FAKULTETI  
«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI

«Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lif yo'nalishi

Bh-313 guruh talabasi

**Qahharov Rafiq Asqaraliyevichning**

**«ALOQA XIZMATLARI HISOBI VA AUDITI»**

(«UZBEKTELEKOM»AK misolida)

**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi: BH-313 guruh Qahharov R**

**Ilmiy rahbar: ass. Shirinov U.A**

**Ilmiy maslaxatchi: prof. Urazov.K.B**

**SAMARQAND-2017**

## MUNDAREJA:

### **Kirish.....**

### **Asosiy qism**

#### **I-Bob.** Aloqa xizmatlari hisobi va auditning nazariy asoslari.....

- 1.1** Aloqa xizmatlari hisobining tasnifi va tavsifi.....
- 1.2** Aloqa xizmatlari hisobining axbarot manbalari.....
- 1.3** Xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda audit tekshiruvini tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari.....

#### **II-Bob.** “UZTELEKOM”AKda aloqa xizmatlari hisobi.....

- 2.1** Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi karxonalarida daromadlar hisobi.....
- 2.2** Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi karxonalarida xarajatlar hisobi.....
- 2.3** Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi karxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yullari.....

#### **III-Bob** “UZTELEKOM”AKda audit o’tkazish tartibi .....

- 3.1** “UZTELEKOM” AK da daromadlar auditi .....
- 3.2** “UZTELEKOM” AK da xarajatlar auditi .....
- 3.3** Karxonalarda audit o’tkazishda statistik usullardan foydalanish va uni takomillashtirish yo’llari.....

### **Xulosa va takliflar .....**

### **Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.....**

### **Ilovalar.....**

## **Kirish**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini riojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, hamda iqtisodiy isloxaatlarning bosh yunalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yunalish nafaqat respublikani axborotlashgan jamiyatga aylantirish uchun xizmat qiladi, balki axborot- kommunikatsiyalar texnologiyalari rivojining hozirgi davrdagi asosiy mazmuni shundan iboratki, umamlakat iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish uchun o'ziga xos yetakchi tarmoq rolini o'ynaydi. Aloqa tarmoqlari samaradorligi, bu mavjud holatlarda qo'yilgan maqsadlarga erishish hisoblanadi. Aniqroq aytganda aloqa samaradorligi bu tarmoqlarning texnikaviy takomilligi, iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va yaratilish maqsadlariga mos kelishidir. Har qanday samaradorlik ma'lum foydaning miqdoriy natijalariga erishishidir. Ma'lumki samaradorlikga ma'lum sarf xarajatlar orqali erishiladi. Shuning uchun ham tarmoqning samaradorligi, sarf xarajat va erishilgan natijalar o'rtaсидagi ayirma sifatida qaraladi.

Prezdintimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarga muljalab O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha xarakatlar strategiyasiga 2017-yil 8-fevralda imzo chekdi<sup>1</sup>. Bu farmoni asosan 5 yilga muljallangan xarakatlar strategiyasi yani:

- Davlat va jamiyat qurulishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yunalishlari.
- Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizmini yanada isloh qilishning ustuvor yonalishlari.
- Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yunalishlari
- ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yunalishlari.

---

<sup>1</sup> Prezdintimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarga muljalab O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha xarakatlar strategiyasiga 2017-yil 8-fevral

 Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni taminlsh hamda chuqur o'yangan, o'zaro manfatli va amaliy tashqi siyosat sohassidagi ustuvor yunalishlari.

Bu beshta ustuvor yunalishlar bo'yicha tahlil qilganimizda mamlakatimizni rivojlantirish yulida poydevor ekanligini tushunamiz shunga mutanosib ravishda Prezdintimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni taminlashga, xususiy mukni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida "gi farmoni bu borada yangi bosqichini belgilab berdi. Bu albatta tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarga kattagina imkoniyatlar ochib berdi yuqorida keltirilgan xarakatlar strategiyasiga asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin prezdintimiz tomonidan shunday jumla ham keltirilganki zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar ni davlat tasarrufidan chiqarib va xususiylashtirish bilan masala hal bo'lib qolmaydi, bundan tashqari boshlayotgan ishidan ertaga daromad kelishini ular bilsin shundagina bu sohada ishlar ko'zlangan natija beradi, dedi Prezdintimiz<sup>2</sup>.

Yuqorida keltirilgan xarakatlar strategiyasining uchunchi ustuvor yo'nalishi aynan men yozayotgan bitiruv malakaviy ishimga to'g'ri keladi, chunki iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yunalishlari bu iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish asosida xo'jalik yurituvchi so'byektning faoliyaini keng qamrab oladi faoliyat jarayonida qancha yutuqlarga erishsa olinayotgan foydasi statistik ko'rsatkichlarda mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotini yuqori darajada bo'lishiga asos bo'ladi bundan tashqari faoliyati qancha kengaysa ish bilan taminlash yani bandlikni qanchadir miqdorda kamaytirishga xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik yurutuvchi so'byektlar ham xizmat qilish orqali iqtisodiyotimizni rivojlanishiga hissa qo'shamoqda. Misol tariqasida aloqa vositalar tarmog'ining rivojlanishi

---

<sup>2</sup> Prezdintimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni taminlashga, xususiy mukni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida "gi farmoni

yuqori darajada deb aytsak maqsadga muofiq chunki texnikaning rivojlanishi deyilganda buning ichiga aloqa vositalar ham kiradi. Eng avvalo, Aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxona faoliyatini rivojlantirishda va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga aholining moddiy farovonligaini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxona subyektlarning tashkil topish jarayonida ularni boshqarish, faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va ma'muriyat tomonidan tezkor qarorlarning qabul qilinishiga asos bo'ladigan zarur ma'lumotlarni asosan buxgalteriya hisobi va audit taqdim etadi.

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish va tijorat faoliyatlarini buxgalteriya hisobi va auditda qayd etib borishlari va moliyaviy hisobotlarni tuzishlari, bu ma'lumotlarni ichki va tashqi iste'molchilar (rahbariyat, investorlar, aksiyadorlar, soliq organlari, banklar)ga taqdim qilishlari shart. Buxgalteriya hisobining ob'ekti bo'lib hisoblangan xo'jalik faoliyati faqatgina uni tashkil etuvchi jarayonlarni doimiy va uzliksiz ravishda amalga oshirib borgan holda mavjud bo'ladi. Bu jarayonlarni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunonchi ta'minotsiz ishlab chiqarish, ishlab chiqarishsiz esa sotish jarayoni amalga oshmaydi. Sotish bo'lmasa korxonaga pul kelib tushmaydi, pulsiz esa ta'minot, ishlab chiqarish jarayonlarini yangidan takrorlab va rivojlantirib bo'lmaydi. Zero xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish zahiralarining o'rni beqiyosdir. Buxgalteriya hisobi va audit ta'minot jarayonida ishlab chiqarish zahiralarini qancha miqdorda, qaysi baholarda, qaysi ta'minotchilardan sotib olinganligi, shuningdek ular bo'yicha ta'minotchilar bilan hisob-kitoblarning holati to'g'risida batafsil axborot beradi. Buxgalteriya hisobi va auditning ob'ekti bo'lib hisoblangan xo'jalik faoliyati faqatgina uni tashkil etuvchi jarayonlarni doimiy va uzliksiz ravishda amalga oshirib borgan holda mavjud bo'ladi. Bu jarayonlarni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunonchi ta'minotsiz ishlab chiqarish, ishlab chiqarishsiz esa sotish jarayoni amalga oshmaydi. Sotish bo'lmasa korxonaga pul kelib tushmaydi, pulsiz esa ta'minot, ishlab chiqarish jarayonlarini yangidan takrorlab va

rivojlantirib bo‘lmaydi. Zero xo`jalik faoliyatida ishlab chiqarish zahiralarining o`rni beqiyosdir.

Buxgalteriya hisobi ta’minot jarayonida ishlab chiqarish zahiralarini qancha miqdorda, qaysi baholarda, qaysi ta’minotchilardan sotib olinganligi, shuningdek ular bo‘yicha ta’minotchilar bilan hisob-kitoblarning holati to‘g‘risida bat afsil axborot beradi. Audit esa buxgalteriya hisobi bilan yurutilgan operatsiya va hujjatlarni qonun doirasida olib borayotganligi meyoriy hujjatlarga asoslanganligini tekshirib boradi. Bundan tashqari xato kamchiliklar topib alohida ilovalarda keltirib o’tadi. Audit jarayoni ayniqsa hujjatlarga asoslangan holda yuritiladi bundan tashqari tekshirilatotgan korxonaning har bir operatsiyasi bilan bog’langan buxgalteriya o’tkazmalarga etiborini qaratadi chunki har bitta kamchiliklar yoki xatolik hujatlarni, buxgalteriya o’tkazmalarni notug’ri berishdan kelib chiqadi. Bu vaziyatda auditor xaoliklarni bartaraf etib tegishli ravishda xulosa chiqarib beradi xulosa agarda korxonaning moliyaviy holati yaxhi yoki yaxhshi bo’lib soliqdan qochgan holda ishlayotgan bo’lsa tegishli ravishda xulosalar tuzilib shartnomaga asoslangan holda tekshirilayotgan korxonaga berilad.

Aoqa xizmat ko’rsatuvchi korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish ko’p jihatdan ular amaliyotida buxgalteriya hisobi va audit tizimini oqilona tashkil etish va yuritishni taqozo etmoqda ayni paytda soha korxonalari faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit an’anaviy tarzda tashkil qilinganligi sababli ularni xalqaro standartlar asosida tubdan isloh qilish talab etilmoqda.

Aoqa ko’rsatuvchi korxonalarning mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishdagi zaruratini quyidagilar orqali belgilash mumkin:

- korxonalarga zarur moddiy resurslarni etkazib berish orqali ular faoliyatida takror ishlab chiqarishning uzviyligi samaradorligini ta’minlash;
- aholining yuqori sifatli aloqa xizmatlarga bo’lgan ehtiyojini qondirishga ko’maklashish;
- aholiga sifatli telitarmoq xizmatlarini ko’rsatish;

 aloqa xizmatlarini respublikaning turli hududlari aholisiga va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida taqsimlash;

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobi va audit xizmatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash hamda ularni amaliyatga joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

E'tiboringizg havola etilayotgan ushbu kurs ishi "Aloqa xizmatlar hisobi va audit" deb nomланади. Uning dolzarbligini quyidagilarda ko'rshimiz mumkin:

- Ishlab chiqarish zahiralari qilinadigan xarajatlarni kamaytirish;
- Ishlab chiqarish zahiralari uzliksiz kelib tushishini ta'minlash;
- Ularning ishlatilmay turib qolmasligi va butlagini ta'minlash;
- Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan materiallarni kankulyatsiya obyektlari o'rtasida to`g`ri taqsimlash.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olingan:

- ❖ aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyatini ochib berish;
- ❖ aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit tekshiruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini yuritish;
- ❖ aloqa xizmat ko'rsatuchi korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini tuzish;
- ❖ aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish;
- ❖ aloqa xizmat ko'rsatish korxonarida audini tashkil etish;
- ❖ aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni rejalashtirish va dasturini tuzish;
- ❖ aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit natijalarini umumlashtirish.

❖ respublikamizda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini shakllantirishdagi o'ziga xos xususiyatlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning zaruratinini ochib berish;

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan Aloqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bitiruv malakaviy ishning ob'ekti hisoblanadi.

### **Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.**

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari bitiruv malakaviy ishining nazariy uslubiy asoslari bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari iqtisodiyotning turli sohalariga, shu jumladan buxgalteriya hisobi va audit sohasiga tegishli O'zbekiston respublikasining Qonulari, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Iqtisodiyot Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Statistika Qo'mitasi kabi vazirlik va idoralarning me'yoriy-huquqiy hujjatalari hamda yo'riqnomalari, shuningdek buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari bitiruv malakaviy ishimning nazariy va uslubiy asoslarini tashkil etadi.

### **Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi.**

Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism uch bob, xulosalar va foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishimda \_\_\_\_ ta jadval, \_\_\_\_ ta chizma va \_\_\_\_ diagramma keltirilgan.

## **I-Bob. Aloqa xizmatlari hisobi va auditning nazariy asoslari**

### **1.1 Aloqa xizmatlari hisobining tasnifi va tavsifi**

Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday iqtisodiy ob'ekt boshqarish faoliyatini asosini murakkab qurilishga ega bo'lgan axbarotning aloqa tizimlari tashkil qiladi, ularning tarkibi, faoliyat turi korxona, iqtisodiy ob'ekt, firmaning ko'lamiga bog'liq.O'zbekistonda aloqa sohasi pochta aloqa sohasi, telefon (mahalliy,shaharlararo,xalqaro) aloqasi,telegraf aloqasi, radio eshittirish, televidiniya, matbuot tarqatish kabi tarmoqlarga bo'linadi. Aloqa O'zbekiston Respublikasi xo'jalik infrastrukturasining tarkibiy qismi bo'lib, aholi, xo'jalik subyektlari,davlat idoralarining pochta, telefon, telegraf,radio va axbarotlarning o'zga turlarini uzatish va qabul qilish hamda aloqa tarmog'i orqali jo'natilayotgan ashyolarni yetkazib berishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishini taminlaydi. Aloqa ommaviy axboratlarni tarqatish, shuningdek, iqtisodiyotni boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida aloqa karxonalari aholiga hamda iqtisodiyot tarmoqlariga pochta, telegraf va mahalliy,shaharlararo, xalqaro telefon aloqa xizmati ko'rsatadi, shuningdek, respublikada radio aloqa, radio eshittirish va televideniyeni texnika vositalar bilan taminlaydi.Aloqa majmuasi-matbuot tarqatish, uyali (radio telefon) aloqa,elektr aloqa, kosmik yo'ldoshlar orqali aloqa respublika hayotida katta rol o'ynaydi. Idoraviy ichki aloqa tarmoqlari (ayrim vazirliliklar, tashkilotlar hamda shaxta, zavod, xo'jaliklarning bevosita o'ziga qarashli aloqa vositalar) ham mavjud. O'zbekistonda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishning umumiy hajmida aloqa xizmati hissasi **5%** ga yaqin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida milliy telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va uni mustaqil ravishda boshqarish muhim vazifaga aylandi. 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Aloqa to'g'risida"<sup>3</sup>gi<sup>3</sup> qonun qabul qilindi, 1997-yil 23-iyunda

---

<sup>3</sup>1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Aloqa to'g'risida"gi qonun.

Aloqa vazirligi Pochta va telekommunikatsiyalar Agentligiga aylantirildi.

2002-yil30-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axbarot –telekommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish tog'risidagi” gi<sup>4</sup> Farmoniga asosan O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston aloqa va axbarotlashtirish agentligi etib qayta tashkil etildi.

Ushbu farmonga binoan axbarotlashtirishning milliy tizmini shakillantirish , iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axbarot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarni ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axbarotga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axbarot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axbarot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish nazarda tutilgan edi.

Kompyuterlashtirish va axbarot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularning zamonaviy tizimlarini joriy etishning birinchi galdagi eng muhim vazifalar deb quydagilar hisoblanadi:

- ❖ *Zamonaviy, ishonchli va xavfsiz milliy ma'lumotlar axbarot bazalarni yaratish;*
- ❖ *Real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalarida kompyuter va axbarot texnologiyalarni keng joriy etish;*
- ❖ *Maktablar, kasb-hunar kollejlar, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlarning ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axbarot texnologiyalarni egallashga hamda ularni faol qo'llanishga asoslangan ilg'or talim tizimlarni joriy etish;*
- ❖ *Mamlakatning barcha hududida axbarot-telekommunikatsiya texnologiyalarining texnikaviy infratuzilmasini, ma'lumot uzatish vositalarni yanada rivojlantirish;*

---

<sup>4</sup>2002 yil 30-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axbarot –telekommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish tog'risidagi ” qarori

❖ *Milliy va xalqaro axbarot tarmoqlarlariga g'oyat tezkorlik bilan kirib borishini joriy etish;*

❖ *Sifatli mahalliy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni eksport qilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmini yaratish;*

Tarmoqlararo aloqa vositalardan:

**Pochta aloqasi.** O'zbekiston dastlabki pochta aloqasi 1865 –yil Toshkent yaqinidagi Niyozbek qalasi bilan Chimkent shahri o'rtaida yo'lga qo'yilgan. 1865-yilning avgust oyida Toshkentda birinchi pochta stansiyasi ochldi. 1932-yil Toshkentda markaziy telegraf ishlay boshladi 1992-yilda Toshkent markaziy telegraf tezkor zamonaviy apparatlar bilan jihozlandi, har sutkada aloqa kanallari orqali 200 mingdan ziyod xabar o'tadi, xorijdan gazetalar tasvirini fototelegraf orqali qabul qiladi<sup>5</sup>.

**Radio va television aloqa.** Toshkentda tajriba radioeshittirishlar dastlab 1926-yil o'tkazilgan. O'zbekistonda radio eshittirish ishlari 1928-yilda boshlangan. 1990-yilda respublikada **12,5** mln dan ortiq aholisi radiolashtirish xizmati bilan ta'minlangan. Respublika radiomarkazi sutkasiga **12** dastur bo'yicha **1700** soat eshittirishlar olib borishni taminlash quvvatiga ega. 1956-yilda Toshkentda (balandligi **180** m) television minorasi qurulib, Toshkent televide niye studiyasi ishga tushurildi.

**Telefon aloqasi.** O'zbekistonda umumiy foydalanilayotgan **200** raqamli dastlabki telefon stansiyasi Toshkentda 1904- yil 15-sentabrda ishga tushirilgan. Telefon tarmog'i bir simli bo'lib, yer ikkinchi o'tkazgich vazifani bajardi. 1924-yil kelib telefon stansiyalarining sig'imi **1700** raqam (nomer)ni tashkil etdi<sup>6</sup>.

O'zbekistonda umumiy foydalaniladigan tarmoqlarida **1,5** mln dan ko'proq telefon raqami bor. Shahar xonadonlarining **50%** (Toshkent shahrida **70%**) uy telefonlariga ega. Qishloq xo'jaligida mavjud **310** mingdan ko'proq telefonning **226** ming xonadonlarda o'rnatilgan. Respublikada telefon tarmog'inining **87%** ini

---

<sup>5</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

<sup>6</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

koordinat va mexanik sistemali stansiyalar tashkil etadi (respublika bo'yicha **1200** dan ortiq stansiyalar mavjud).

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishiga qadar respublikaning jahon mamlakatlari bilan cheklangan darajadagi telefon aloqasi Moskva orqali amalga oshirilgan. Mustaqillikning dastlabki davridayyoq xalqaro telefon aloqasi rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. 1992-yil Toshkentda Yaponianing "NEK" firmasi yetkazib bergen asbob-uskunalaridan abonentlarning jahon telefon tarmog'iga chiqishni hamda ikki tomonlama xalqaro teleko'rsatuvlarni ta'minlaydigan **150** kanali raqamli xalqaro kosmik (fazoviy) telefon stansiyasi quruldi va foydalanishga topshirildi. 1997-yilda Xitoy (Shanxay) bilan Germaniya (Frankfurt-Mayn)ni bog'laydigan shisha kabelli Transosiyo-Yevropa aloqa magistralining O'zbekiston hududi orqali o'tadigan qismi (**926 km**) qurilishi tamomlandi. Keyinchalik Turkiyaning "Netash", "Teletash", "Simko" firmalari **30** kanali yana bir xalqaro kosmik telefon stansiyasini Toshkentda qurdi. Bu stansiyalarning ishga tushirilishi bilan xalqaro telefon so'zlashuvining **80%**ini sun'iy aloqa yo'ldoshlari orqali bevosita xorijiy mamlakatlarga uzatish va ulardan qabul qilishga erishildi. Hozirgi vaqtida shaharlar va qishloqdagi telefon egalari yer kurrasidagi barcha mamlakatlar bilan avtomatik bog'lanish imkoniyatiga ega. Aloqani rivojlantirish dasturidagi asosiy ko'rsatkichlar quydagilar hisoblanadi.

- ❖ *Aloqaning maxsuloti.*
- ❖ *Shaharlарaro telefon kanallarning uzunligi.*
- ❖ *Shaharlар va qishloq joylardagi telefon stansiyalarning kattaligi (sig'imi).*
- ❖ *Televizion stansiyalarning soni va quvvati.*
- ❖ *Kompleks mexanizatsiyalashgan aloqa karxonalarining soni.*
- ❖ *Ta'rif daromadlari hajmi ,foyda,rentabellik va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar.*

Aloqa mahsulotning hajmi –bu ushbu tarmoq tomonidan Milliy iqtisodiyot va aholiga ko'rsatadigan barcha xizmatlarini pul o'lchovida ifodalangan yig'indisidir. Bu natura holida ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini ularga mos bo'lgan joriy baholarga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Shaharlararo telefon aloqalarning hajmi dasturlashtirilayotgan davrdagi aholining soni va uning har bir kishisiga to'g'ri keladigan telefon orqali gaplashishlar miqdorini oshishi asosida aniqlanadi.

Telefon aloqalarning o'sish darajasi milliy iqtisodiyotda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarining sonining oshishiga mo'ljallanishi lozim. Hozirgi davrda aloqa karxonalarining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, mana shu karxonalarining tarif daromadlari hajmi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich aloqa karxonalarini haq olib ko'rsatadigan xizmatlarini oshirishni taminlaydi, tarmoqning xo'jalik faoliyatini baholashidagi kamchiliklarni bartaraf etadi va h.

Telefon stansiyalari tarmoqlarni kengaytirish har 100 ishlovchini va 100 xonadonni telefon nomerlari bilan taminlash normasi asosida rivojlantirish kerak. Ayniqsa, qishloq joylarida telefon aloqasini tez su'ratlar bilan rivojlantirish lozimdir. O'zbekiston "Mobil aloqa tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyodagi yetakchi **10** ta mamlakat sirasiga kiradi"<sup>7</sup>. 2010-yili yurtimizda mobil aloqa tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiyligi soni 2000-yildagiga nisbatan **238** barobar ko'payib **22,7** mln kishidan oshdi. 2000-yilda respublikamiz aholisining mobil aloqa telefonlari bilan taminlash darajasi har **1000** nafar aholiga **4** donadan kam bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda har ming nafar odamga **800** donadan ziyod telefon to'g'ri keldi. Kuchli raqobat muhitining shakillangani va mobil aloqa abonentlar soni ortib borayotganligi tufayli mobil aloqa xizmatining tarif narxlari pasaymoqda. Bundan tashqari hozirgi kunda O'zbekiston MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib raqamli televidiniyaga to'liq o'tish bo'yicha keng ko'lami dasturni amalga oshirishga kirishdi va bu boradagi ishlar 2015-yilda yakunlashi ko'zda tutilgan. 2014 yilda aloqa tizmida faoliyat ko'rsatayotgan karxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **24,5 %** ga o'sdi.

Mamlakatimiz rahbarining "2015 yilning 24 yanvar kuni Xitoy Xalq Respublikasi Davlat taraqqiyot banki ishtirotida O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyala tarmog'ini modernizatsiya qilish va investitsion loyihalarni

---

<sup>7</sup>[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>8</sup> qaroriga ko‘ra telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha **117,6 mln.** AQSh dollariga teng (shu jumladan, Xitoy Davlat taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 100 mln.AQSh dollaridagi kredit vositalari hisobiga) loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu yirik loyihalar magistral ma’lumotlar uzatish tarmoqlari imkoniyatini kengaytirishga qaratiladi: Mazkur qarorga muvofiq, FTTx texnologiyasi asosida optiq aloqa liniyalarini kengaytirish, abonent liniyalarini modernizatsiya qilish, Toshkent shahrida 69120 dona keng polosali internet portlariga xizmat ko‘rsatuvchi ma’lumotlar almashish uskunasini o‘rnatish uchun 6,9 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida raqamlı televideniyaga texnik va texnologik o‘tish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan televideniya sohasiga zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Dastur doirasida mamlakatimizda teleuzatishlarni raqamlı formatga o‘tkazish ikki bosqichda:

- ❖ *birinchisi 2013–2015 yillarni qamrab olsa,*
- ❖ *ikkinchisi — 2016–2017 yillarda amalga oshiriladi.*

2014 yil mobaynida aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi korxona va tashkilotlarga aholi va tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan **4001** marotaba murojaatlar yo‘llangan.

Bu ko‘rsatkich 2013 yilda kelib tushgan murojaatlar soni (**4955 ta**) bilan taqqoslaganda, **19,6** foizga kamaygan.

2014 yilda kelib tushgan murojaatlarning **3171** tasi shikoyatlar bo‘lib, ularning **442** tasi bevosita aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi korxona va tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq. Sohaga kelib tushgan shikoyatlar 2013 yilga nisbatan 2014 yilda **19,6** foizga kamaygan.

Korxona va tashkilot rahbarlariga aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi

---

<sup>8</sup> 2015 yilning 24 yanvar kuni Xitoy Xalq Respublikasi Davlat taraqqiyot banki ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyala tarmog‘ini modernizatsiya qilish va investitsion loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

xodimlarning iste'molchilar bilan ishlash malakasini oshirish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, aholi bilan munosabatda bo'lish va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rishga alohida e'tibor qaratilyapti.

O'zbekiston Respublikasining birinchi "Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqib"<sup>9</sup>, 2015 yilda soha oldida turgan dolzarb vazifa va istiqboldagi rejalgarda urg'u qaratildi. Xususan, qishloq joylarida aloqa xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini inobatga olib, xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish, Internet tarmog'idan foydalanishning texnik imkoniyatlarini yanada oshirish, keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish va optik tolali aloqa tarmoqlarini qurish ishlarini davom ettirish, barcha hududlarni, shu jumladan, uzoq va chekka hududlarni raqamli televideniyega o'tkazish ishlarini oxiriga yetkazish yuzasidan tegishli vazifalar belgilab berildi.

Shu bilan birga 2015 yil uchun quyidagi chora-tadbirlar bo'yicha vazifalar belgilab olindi:

- ❖ *Internetga keng polosali ulanish imkonini beruvchi portlar sonini oshirish;*
- ❖ *Mamlakat bo'ylab mobil aloqa tizimida ovoz uzatish texnologiyasi (2G GSM), ma'lumotlar uzatish (3G UMTS), yuqori tezlikda ma'lumotlar almashish imkonini beruvchi (4G LTE) texnologiyalarini rivojlantirish;*
- ❖ *Yagona portalda tadbirkorlik subyektlariga faoliyatning ruxsat beruvchi turlari uchun hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish imkoniyatini beruvchi interaktiv xizmatni joriy qilish;*

"O'zbektelekom" AK chaqiriqlarga xizmat ko'rsatuvchi yagona markaz loyihasini joriy etish doirasida respublikamizning barcha hududlarida 13ta

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi birinchi "Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasasi

mintaqaviy markazlar tashkil etildi. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi telekommunikatsiya va internet-xizmatlar ko'rsatish sifatining yanada yuqori bosqichga chiqishini ta'minlaydi. Mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini yangi avlod texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Joriy yil davomida respublikamiz bo'ylab 26 ta zamonaviy kommutatsiya uskunalarining ekspluatatsiya qilinishi telefon raqamlari sig'imini sezilarli miqdorda oshirishga imkon berdi. Boshqaruv jarayonida buxgalterya hisobi qayta rol o'ynaydi, bu yerda barcha axbarotlarning **60%** ga yaqini jamlanadi. Buxgalterya hisobining axbarotli tizimlari an'anaviy ravishda vazifalarning quydagilarini o'z ichiga oladi: asosiy vositalar hisobi, moddiy boyliklar hisobi, mehnat va ish haqi hisobi, tayyor mahsulotlar hisobi, moliyaviy hisoblash operatsiyalarning hisobi, ishlab chiqarish xarajatlar hisobi, yig'ma hisob va hisobatlarni tuzish.

Korxonalarda mahalliy hisoblash tarmoqlarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar majmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari surdi. Ma'lumotlarni taqsimlash bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar o'rtasida axborotlarni almashtirish, kompyuterda boshlang'ich hujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari paydo bo'ldi va boshqaruv masalalarining vazifalararo majmualari vujudga keldi. Telefon xizmat ko'rsatuvchi karxonalarda buxgalteriya hisobi majmualari murakkab ichki va tashqi aloqalarga ega.

Ichki aloqalar buxgalteriya hisobining ayrim vazifalari, majmualari va uchastkalarining axborotli o'zaro hamkorliklarini; tashqi aloqalar – boshqaruvning o'zga vazifalarini amalga oshiruvchi boshqa bo'limlari hamda tashqi iqtisodiy ob'ektlar bilan o'zaro hamkorligini aks ettiradi.

Hisob vazifalari majmuasining axborotli aloqasi mashina dasturining asosida kiritilgan ishlab chiqishning uch pallasini farqlashga imkon beradi.

 ***Birinchi pallada birlamchi hisob, birlamchi hujjatlarni tuzish, ularni ishlab chiqish va hisobning har bir uchastkasi bo'yicha tahliliy hisobning qaydnomalari tuzilishi bajariladi.***

- *Ishlab chiqishning ikkinchi pallasi provodkalarini tuzish, ularni tahliliy va sintetik hisobning turli registrlari, schetlarning tartib raqamlari bo'yicha qayd daftari ordenlariga joylashtirishdan iboratbo'ladi.*
- *Ishlab chiqarishning uchinchi pallasi yig'ma sintetik hisobini: asosiy kitobning schyotlari bo'yicha hisobot, sal'do qaydnomalari va moliyaviy hisobotning shakllarini tuzishdan iboratbo'ladi.*

Aloqa xizmat ko'rsatuvchi karxonalarining barcha birlamchi buxgalteriya hujjatlari bir shaklga keltirilgan tizimlari talablarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Karxonanig buxgalterya hisobida hujjatlar turli belgilar bo'yicha tasniflanadi.

- *belgilanishi bo'yicha -farmoyish beradigan, ijroiya (oqlaydigan), hisobli rasmiylashtiruvchi, murakkab;*
- *xo'jalik operatsiyalari mazmuni bo'yicha- moddiy, pulli hisoblash;*
- *aks ettirgan operatsiyalarning hajmi bo'yicha yagona (birlamchi) yoki hisobga oladigan o'rinalarining soni bo'yicha: bir qatorli va ko'p qatorli;*
- *tuzilish joyi bo'yicha: ichki va tashqi;*
- *to'ldirish usuli bo'yicha: qo'lda, hisobni avtomatlashтирish vositalari yordamida.*

Aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi karxonalarda buxgalterya hisobining muhim obyektlari sirasiga kiradi. Buxalteryda xisobi xizmat ko'rsatishni pul birligida va boshqa natural o'lchov birliklari asosida miqdor jihatdan o'lchash va baholash, shuningdek ushbu faoliyat natijalari va ularga oid barcha moliyaviy iqtisodiy munosabatlar to'g'risidagi malumotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash va tegishli boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun tegishli foydalanuvchilarga uzatish vositasidir.

Xizmat ko'rsatish malum bir davrda yoki vaqt mobaynida amalga oshiriladi. Bu davr yoki vaqt xizmat ko'rsatishi zamoni hisoblanadi. Buxgalterya hisobida ko'rsatilgan xizmatlar zamoni deyilganda ular ko'rsatilgan hisobat oylar, chorakliklar va yil tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarga o'tish respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasining mazmunan boyishiga, butkul yangi

xizmatlar paydo bo'lishiga olibkeldi. Chunonchi uyali aloqa xizmatlari bunga misol bula oladi.

Aloqa xizmat ko'rsatish karxonalarini buxgalterya hisobining muhim subyektlar sifatida turli belgilar buyicha tasniflash mumkin. Chunonchi, buxgalterya hisobida xizmat ko'rsatish karxonalarini ularning qaysi sohaga taalluqliligi, mulkiy shakli va maqomi, xodimlarning soni, tanlangan soliq rejimi va boshqa belgilar bo'yicha tasniflanish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko'rsatish karxonalarda ularning qaysi sohaga taalluqligi bo'yicha tasniflash ularga biriktirilgan tarmoq kodini berish asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikamizda xalq xo'jaligi tarmoqlari umum davlat tasniflanishiga ko'ra xizmat ko'rsatish subyektlariga quydag'i tarmoq kodlari biriktirilgan.

### **1.1.1-jadval**

<b>52000"Aloqa"</b>		
<b>52100</b>	Pochta aloqsi	Pochta, pochta-telegraf, aloqa bo'limalari
<b>52200</b>	Kuryer aloqasi	Maxsus aloqa, felda'aloqa x.k.karx.
<b>52300</b>	Elektr-radio-uyali va peyjing aloqa	Elektr-radio uyali va peyjing alqasimi taminlovchi karxonalar

**1.1.1-jadval.** Xizmat ko'rsatish subyektlariga quydag'i tarmoq kodlari

## ***1.2 Aloqa xizmatlari hisobining axbarot manbaları***

Telefon xizmatlari hisobini tog'ri va aniq yuritilishini taminlash maqsadida bir qancha axborot manbalaridan foydalaniladi. Jumladan, davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, qarorlar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlar. Bundan tashqari korxona tomonidan qabul qilingan ishchi xujjatlar ham buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

***Telefon xizmatlarini ko'rsatuvchi karxonalarda quydagilar talab etiladi.***

- 1.Mobil aloqa sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qo'llaniladigan. (Normativ-huquqiy hujjatlar,me'yoriy hujjatlar)
- 2.Telefon xizmatlarini ko'rsatuvchi karxonalarda faoliyat jarayonida yuzaga kelayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etilishi.
3. Javobgarlik.

**Mobil aloqa sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qo'llaniladigan;**

***1. Normativ-huquqiy hujjatlar*** –Mobilaloqa sohasidagi litsenziatlar faoliyatları litsenziya kelishuvi shartları hamda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Mobil aloqa litsenziatlar faoliyatlarını tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar quyida keltirilgan:

***1.1.O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi”.***

**O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;**

- 1999 yil 20 avgustdagи “Telekommunikatsiyalar to'g'risida”gi 822-I-son<sup>10</sup>;
- 2003 yil 11 dekabrdagi “Axborotlashtirish to'g'risida”gi 560-II-son<sup>11</sup>;
- 1998 yil 25 dekabrdagi “Radiochastota spektri to'g'risida”gi<sup>12</sup> 725-I- son;

***1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari***

- 2000 yil 22 noyabrdagi “Telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida boshqaruvin tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi<sup>13</sup> 458-son qarori

<sup>10</sup> 1999 yil 20 avgustdagи “Telekommunikatsiyalar to'g'risida”gi

<sup>11</sup> 2003 yil 11 dekabrdagi “Axborotlashtirish to'g'risida”gi

<sup>12</sup> 1998 yil 25 dekabrdagi “Radiochastota spektri to'g'risida”gi qonuni

bilan tasdiqlangan “Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash to'g'risida Nizom”;

- 2005 yil 22 noyabrdagi “Axborotlashtirish sohasida normativ huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida”gi<sup>14</sup> 256-son;

## **2.Me'yoriy hujjatlar:**

- O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2009 yil 6 fevralda 1900-son bilan ro'yxatga olingan “Mobil xizmatlarini ko'rsatish Qoidalari<sup>15</sup>”;

- “Mobil aloqa tarmoqlari. Xizmatlar sifati ko'rsatkichlari uchun belgilanadigan normalar va ularni o'lchov sinovidan o'tkazish metodikalari”;

### **2.1.Shaharsozlik normalari va qoidalari**

- “Sotali mobil aloqa tarmoqlarini qurish va modernizatsiyalash uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tarkibi, tartibi”;

- “Umumiy foydalanishdagi mobil aloqa tarmoqlarining komplekslari”;

### **2.2. Telefon xizmatlarini ko'rsatuvchi karxonalarda faoliyat jarayonida yuzaga kelayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etilishi.**

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiysi tomonidan mobil aloqa sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan operator va provayderlarida o'tkazilgan tekshirishlar natijasi tahlil qilinganda, quyidagi bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilib kelinmoqda. Aloqa tarmog'ini uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida me'yoriy hujjatlarga muvofiq profilaktika ishlarini o'z vaqtida o'tkazilishi, radioelektron vositalarning belgilangan parametrlaridan og'ishini oldini olish maqsadida texnik vositalar parametrlarini o'lchash davriyligi amal qilinishi va o'lchash jarayonidan o'lchovlarning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida o'lchov vositalarini davriy qiyoslashdan o'tkazilishi o'z navbatida huquqiy-me'yoriy hujjatlar talablarini

---

<sup>13</sup> 2000 yil 22 noyabrdagi “Telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 458-son qarori

<sup>14</sup> 2005 yil 22 noyabrdagi “Axborotlashtirish sohasida normativ huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida”gi qarori

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2009 yil 6 fevralda 1900-son bilan ro'yxatga olingan “Mobil xizmatlarini ko'rsatish Qoidalari

buzilishini oldini olishiga va ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha murojatlarning kamayishiga olib keladi.

### **3. Javobgarlik**

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiysi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda moliyaviy sanktsiyalar undirish yoki ma'muriy jazoga tortish huquqiga ega. Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiysi organiga O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksining 151-moddasi birinchi qismida, 152-moddasi birinchi qismida, 153, 154, 156-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Moliyaviy sanktsiyalar O'zbekiston Respublikasida pochta va telekommunikatsiyalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnatish bo'yicha Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiysi tomonidan texnik parametrlar, texnik foydalanish qoidalari, pochta va telekommunikatsiyalar vositalari ishlarining va xizmat ko'rsatish sifati buzilganligi uchun ko'rsatkichlarning yagona tizimi bo'yicha hisoblanadi.

Tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar oqibatida paydo bo'lgan buzilishlar bundan mustasno.(**VMning 2000 yil 14 avgustdagি 318-son qarori**).<sup>16</sup> Shu bilan bir qatorda mobil aloqa sohasida faoliyat olib borayotgan sub'ektlar tomonidan belgilangan talablar buzilganligi uchun litsenziyalarining amal qilishini vaqtincha to'xtatish, tugatish va bekor qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasiga taklif kiritildi.

---

<sup>16</sup> Tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar oqibatida paydo bo'lgan buzilishlar bundan mustasno. ( Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 14 avgustdagи 318-son qarori).

### **1.3 Xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda audit tekshiruvini tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari.**

Respublikamizda xizmat ko’rsatuvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish, sodir bo’lgan xo’jalik muomalalarini amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini ta’minlash ular amaliyotida auditorlik xizmatidan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda auditorlik ichki va tashqi ko’rinishda bo’lishi mumkin. Ichki audit korxona rahbariyatiga bo’ysinuvchi va xodimlar shtatida hisobga olinadigan shaxsalar tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi savdo korxonasida aktivlarning but saqlanishini, xodimlarning o’z vazifalarini to’g’ri bajarishni tekshirish hisob siyosatiga rioya etilishini ta’minlaydigan usul chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.


Tashqi audit esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi, maxsus litsenziyaga ega bo’lgan mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan o’tkaziladi.

Shuningdek, xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda tashqi audit xizmatini tashkil etish va samaradorligini oshirish uning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bevosita bog’liq. Mazkur korxonalarda auditorlik tekshiruvini o’tkazishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi me’yoriy hujjatlar quyidagilarga bog’liq bo’ladi:

- auditni tashkil qilish;
- auditorlik tekshiruvini o’tkazish;
- audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;
- auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

Mamlakatimizda auditorlik faoliyatini huquqiy asoslarini O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahrirdagi «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi, «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi qonunlar, «Maxsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to’g’risida»gi NIZOM 2003-yil 25-dekabrdagi 567-sonli qarori asosidagi o’zgartirishlar bilan va boshqa me’yoriy hujjatlar tashkil qiladi. Bu me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish mamlakatimizda

auditorlik firmalarining mavqeini oshirish va audit xizmati bozorini rivojlantirishga imkon yaratadi. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni auditorlik firmasi huquq va majburiyatlarini, shuningdek auditorlik tekshiruvini o'tkazish tartibini ifodalaydi. Jumladan bu qonunning 9-moddasiga ko'ra, «Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning to'g'riliqi va qonun hujjatlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir»<sup>17</sup>.



**1.3.1-chizma.** Moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning umumiyligini konsepsiysi.

<sup>17</sup>, „Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonun 9-modda.

Bu chizmadan ko’rinib turibdiki, unda moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o’tkazishning umumiy konsepsiysi audit o’tkazish konsepsiysi, auditorlik qoidalari va auditorlik faoliyati standartlari kabilarga ajratilib ko’rsatiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xizmat ko’rsatish korxonalarida auditorlik tekshiruvining asosiy vazifasini quyidagi taribda belgilash mumkin:

- ⊕ *xizmat ko’rsatish korxonasida amaldagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tekshirish;*
- ⊕ *aloqa xizmatlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida to’g’ri aks ettirilganligini tekshirish;*
- ⊕ *xizmat ko’rsatish korxonasida amalgaga oshirilgan hisob-kitoblarning aniqligini tahlil qilish;*
- ⊕ *moddiy-moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilishini tekshiruvdan o’tkazish;*
- ⊕ *aloqa xizmatlari ko’rsatuvchi korxonalarni moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirilganligini aks ettirish.*

Bozor munosabatlarida xizmat ko’rsatish korxonalarida tashqi auditorlik tekshiruvini tashkil etishning asosiy maqsadi amalgaga oshirilgan aloqa xizmatlar muomalalarini mavjud me’yoriy hujjatlarga mosligini va ularda moliyaviy hisobotning tuzilish tartibini to’g’riligini aniqlashdan iborat. Moliyaviy hisobotni tashqi auditorlik tekshiruvidan o’tkazishda quyidagi konsepsiyaga tayanish maqsadga muvofiqliqdir.

Shuningdek, mazkur Qonunga muvofiq, quyidagi xo’jalik sub’ektlari bir yilda bir marotaba majburiy auditorlik tekshiruvidan o’tishlari shart.

- ⊕ *aksiyadorlik jamiyatları;*
- ⊕ *banklar va boshqa kreditorlik tashkilotları;*
- ⊕ *sug’urta tashkilotları;*
- ⊕ *investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo’lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;*

## ustav kapitalida davlatga tegishli ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Auditorlik tashkilotlari buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish, korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etish, buxgalteriya va soliq hisobotlariga oid maslahatlar berish, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitob va deklaratsiyalarni tuzish kabi professional xizmatlarni ham ko'rsatadilar.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik standartlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Do'stmuratov R.D.ning ta'kidlashicha, «auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) – bu barcha auditorlik tashkilotlari o'zlarining professional faoliyatlari jarayonida rioya qilishlari lozim bo'lgan yagona asosiy tamoyillardir»<sup>18</sup>

Umuman olganda, auditorlik standartlari audit o'tkazish tartib-qoidalari va ketma-ketligini ifodalaydi. Ularni ichki audit, tashqi audit, xalqaro audit, milliy audit va auditorlik firmasining audit standartlariga bo'lish mumkin.

Auditorlik faoliyatining xalqaro va milliy standartlarini tadqiq etgan holda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda tashqi auditorlik tekshiruvini tashkil etishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Respublikamizda qabul qilingan auditorlik faoliyatining milliy standartlari xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ularda auditni rejalashtirish qoidalari, mijozning xo'jalik faoliyati bilan tanishish tartibi, auditorlik xatarini belgilash, auditorlik tekshiruvi o'tkazishning xususiyatlari, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasiga qo'yiladigan talablar va boshqalar ifodalagan. Shunga qaramasdan, respublikamizda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish uslubini ishlab chiqish borasida ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, Norbekov.D.E.ning aytishicha, «auditorlik tashkilotlarining faoliyatini kengaytirish auditorlik kompaniyalari

---

<sup>18</sup> Do'smurodov R.D., Audit asoslari–T; O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.2003 y

orgali amalga oshiriladi. Bu kompaniyalarda tarmoq harakteridan kelib chiqqan holda auditorlarni tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda»<sup>19</sup>.

Biz ushbu muallifning fiklarini qo'llab-quvatlaymiz. Haqiqatdan ham ilmiy tadqiqotlarning tasdiqlashicha, hozirgi kunda respublikamizda xizmat ko'rsatish korxonalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada aloqa xizmatlar sohasida etarlicha bilim va amaliy tajribaga ega auditorlarni tayyorlash zarur.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida respublikamiz xizmat ko'rsatish korxonalarida kompleks auditni tashkil etish tartibini belgilash, uning tarkibini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida kompleks auditorlik tekshiruvini o'tkazish ularda qo'llaniladigan audit shakllariga bevosita bog'liq. Audit shakllariga tasdiqlovchi, maqsadli va auditning tavakkalchilikka asoslangan shakllarini kiritish mumkin.

Auditning maqsadli yoki yo'naltirilgan shakli ma'lum maqsad va vazifalarga qaratilgan bo'ladi. Xizmat ko'rsatish korxonalari o'z rivojlanish yo'nalishlarini belgilamoqchi yoki investitsiyalarni ma'lum shaklda (xomashyo, tovar, pul) jalb qilmoqchi bo'lsa auditning mazkur shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xizmat ko'rsatish korxonalari o'z faoliyatlarini tavakkalchilik asosida yuritadilar. Ammo, tavakkalchilik har doim ham ijobiy samara beravermaydi. Shunday paytlarda tavakkalga asoslangan audit shaklini qo'llash zaruriyati tug'iladi. Ushbu audit shakli tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ko'proq foyda olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tovarlar muomalarini tekshirishda auditorlar tanlama audit usulidan keng foydalanishlari lozim. Tanlash hajmiga auditorlik dalillarining etarliligi, o'z vaqtidaliligi va ishonchliligin ta'minlash muammosi bevosita bog'liq.

---

<sup>19</sup> Z.Mamatov, D. Norbekov va boshq. Audit. T.,2002 y

Bunda auditorlar qanday tadbirlarni tanlashni va ularni qachon bajarishni aniqlab olgach, tanlovdagi birliklar miqdori, ularning hajmi, asosiy belgilari kabilarni aniqlaydi.

Bundan tashqari buxgalteriya yozuvlarini noto'g'ri rasmiylashtirilganligi to'g'risida to'plangan auditorlik dalillari auditorga korxonaga taqdim etiladigan maxsus xulosa ichki nazorat tizimini mustahkamlashga doir tavsiyalar berishga ko'maklashadi.

Xizmat ko'rsatish korxonasi bilan auditorlik firmasi o'rtasidagi huquqiy-iqisodiy munosabatlar ular o'rtasida tuziladigan shartnomalar orqali tartibga solib boriladi. Auditorlik shartnomasi audit o'tkazishga asos hisoblanib, xizmat ko'rsatish korxonasi va auditorlik firmasining huquq va majburiyatlarini ifodalovchi huquqiy hujjat hisoblanadi. Auditorlik shartnomasi qanchalik to'g'ri va asosli tuzilgan bo'lsa, uning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Mazkur muomalalarga asosan xizmat ko'rsatish korxonalarining ma'lum faoliyati auditorlik tekshiruvidan o'tadi. Bunday tekshiruvnig ob'ektlari bo'lib xizmat ko'rsatish muomalalari, sotish muomalalari, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar, pul-valyuta muomalalari, bank muomalalari, byudjet bilan hisoblashishlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Auditorlik xizmatini ko'rsatishga mo'ljallangan auditorlik shartnomalariga asosan mijozlarga har oyda yoki har chorakda xizmat ko'rsatiladi. Bunday xizmatlar xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning hisob siyosatini belgilash, joriy hisobni yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish, soliqlarni to'g'ri hisoblash kabi muomalalar bo'lishi mumkin.

Auditorlik shartnomasini tuzishda ma'lum ketma -ketlikka rioya qilish lozim. Tekshiruvdan avval xizmat ko'rsatuvchi korxonaning faoliyati atroficha o'rganiladi, auditning maqsadi, vazifalari va ob'ekti aniqlanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda kompleks auditorlik tekshiruvining samaradorligini ta'minlash uni to'g'ri rejalashtirishni talab etadi. Audit rejasini tuzish korxona faoliyatini tekshirishga rozilik berish va shartnomaga tuzishdan oldin tuziladi. Audit rejasi ixcham tuzilgan va tushunarli bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda kompleks auditorlik tekshiruvini tashkil etish va rejalashtirish bosqichlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining 3-sonli «Auditni rejalashtirish» nomli milliy standartning 1.1.-bandida auditni rejalashtirishning quyidagi bosqichlari belgilab qo'yilgan:

- + ***dastlabki rejalashtirish;***
- + ***auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;***
- + ***auditning umumiy dasturini tayyorlash va tuzish (1.16., 103 b.).***

O'razov K.B.ning ta'kidlashicha, “auditni tashkil etishni shartli ravishda quyidagi to'rtta bosqichga bo'lish mumkin”<sup>20</sup>:

- + ***auditni boshlashga qadar bo'lgan bosqich;***
- + ***auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichi;***
- + ***auditorlik tekshiruvi natijalarini jamlash va rasmiy lashtirish bosqichi;***
- + ***auditorlik tekshiruvi natijalarini tadbiq etish bosqichi;***

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit yuqoridagi tartibda tashkil etilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

---

<sup>20</sup> O'razov K.B “Buxgalteriya hisobi va audit” Maruzalar matni –SamISI 2004

## ***II-Bob. “UZTELEKOM”AKda aloqa xizmatlari hisobi***

### ***2.1 Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi karxonalarida daromadlar hisobi***

O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarning huquqlarnni ximoya qilish to’g’risida”<sup>21</sup>gi Qonuni (matn davomida -Qonun) va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan. “Uzbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (matn davomida Kompaniya), O’zbekistan Respublikasi Prezidentining “Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvga doyr chora-tadbirlar to’g’risida”<sup>22</sup>gi 2000 yil 28 iyundagi PF-2647-sok farmoniga va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Uzbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari tug’risida”gi 2000 yil 30 iyundagi 253-son qaroriga muaofiq tashkil etilgan.Kompaniya cheklanmagan muddatga tuzildi.

Kompaniya faoliyatini O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O’zbekiston Respublikasining qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari farmoyishlariga, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlariga, O’zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qumitasining normativ-huquqiy hujjatlariga va mazkur ustavga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

Kompaniyaning to’liq firma nomi:

-uzbek tilida: “Uzbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (lotin yozuvi asosida);

**“Uzbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (kiril yozuvi asosida);**

**-rus tilida: Aksionernaya kompaniya “Uzbektelekom”;**

-ingliz tilida: Joint Stock Company “UZBEKTELECOM”.

Kompaniyaning qisqartirilgan firma nomi:

-Uzbek tilida: “O’zbektelekom” AK (lotin yozuvi asosida);

---


<sup>21</sup> O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish to’g’risida”gi Qonuni

<sup>22</sup> “Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvga doyr chora-tadbirlar to’g’risida”<sup>22</sup>gi 2000 yil 28 iyundagi PF-2647-sok farmon

- Kompaniyaning joylashgan yeri; **Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shaxri, Amir Temur ko'chasi, 24 uy; Samarqanddagi filiali bog'shamol k'chasida.** Kompaniyaning elektron pochta manzili: [info@nztelecom.oz](mailto:info@nztelecom.oz). Kompaniyaning rasmiy veb-sayti: [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz).

“Uzbektelekom” AK Kompaniya ustav fondining (ustav kapital ) miqdori Kompaniya ustav fondi **37 729 606 482** (Uttiz yetti milliard yetti yuz yigirma tuqqiz million olti yuz olti ming turt yuz sakkson ikki) sumni tashkil qiladi va quyidagicha taqsimlanadi:

- ⊕ davlat ulushi - **45 foiz yoki 16 978 323 090** (un olti milliard tuqqiz yuz etmish sakkiz million uch yuz yigirma uch ming tuqson) sum (**14 712 585 dona aksiyalar**);
- ⊕ xorijiy investorlar ulushi - **49 foiz yoki 18 487 506 980** (Un sakkiz milliard turi yuz sakkson yetti million besh yuz olti ming tuqqiz yuz sakkson) sum (**16 020 370 dona aksiya**);
- ⊕ yuridik va jismoniy shaxslar ulushi - **6 foiz yoki 2 263 776 412** (ikki milliard ikki yuz oltmis uch million etti yuz etmish olti ming turt yuz un ikki) sum (**1 961 678 dona aksiya**). 2.1.1 - diagramma orqali tahlil qilamiz <sup>23</sup>.



**2.1.1-diagramma. “Uzbektelekom” AK Kompaniya ustav fondi.**


<sup>23</sup> Manba Uzbektelekom” AK ustav fondi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

*Kompaniya aksiyalarining nominal qiymati 1 154 (bir ming bir yuz ellik turt) so'mni tashkil qiladi.*

**Kampaniyaning** ustav fondi umumiyligi **32 694 633** (uttiz ikki million olti yuz tuqson turt **ming oltti yuz uttiz** uch) **dona hujjatsiz** aksiyalarga bulingan, shundan **31 579 649** (uttiz bir **million besh** yuz etmish tuqqiz ming olti yuz qiriq tuqqiz) dona egasi yozilgan oddiy va **1 114 984** (**bir** million **bir** yuz un turt ming tuqqiz yuz sakkson turt) dona egasi yozilgan **imtiyozli** aksiyalarni tashkil qiladi. Kompaniya tomonidan birlamchi chiqarilgan aksiyalar tuliq joylashtirilgan.

“Uzbektelekom” AK Kampaniyaning ustav fondining umumiyligi **32694633** dona hujjatsiz aksiyalarni tahlil qilamiz. Bu tahlilni 2.1.2 - diagramma orqali ko'rib chiqamiz<sup>24</sup>. Buning uchun bizga yuqorida keltirilgan malumotlar asos bo'ladi.

### **2.1.2 - diagramma**



#### **2.1.2-diagramma. Kampaniyaning ustav fondi (aksiyalar)**

“Uzbektelekom” AK Kampaniyaning asosiy faoliyati bilan tanishadigan bo'lsak bunda kompaniya asosiy faoliyati aloqa uzatish bilan shug'ullanuvchi hisoblanadi.

<sup>24</sup> Manba Uzbektelekom” AK ustav fondi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarni hisoblash chog'ida daromad e'tirof etilgan paytni aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad xo'jalik yurituvchi sub'yektga kelgusida iqtisodiy naf tushishi ehtimoli bo'lган paytda, shuningdek bu nafni ishonchli va aniq o'lchash mumkin bo'lган paytda aks ettiriladi. Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad joriy narxlarda olingan yoki olinishi lozim bo'lган tushum qiymati bo'yicha baholanadi. Daromad miqdori – olingan yoki olinishi lozim pul mablag'i yoki uning ekvivalentlaridan iborat. № 21-son BHMS ga muvofiq asosiy faoliyatning daromadlari - tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalardan iborat.

№ 2-son BHMS ga muvofiq tavarlarni sotishdan tushgan daromad quyidagicha tan olinadi:

- ⊕ *xo'jalik yurituvchi sub'yekt tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini xaridorga topshirganda;*
- ⊕ *xo'jalik yurituvchi sub'yekt odatda mulkka egalik qilish bilan bog'liq bo'lган darajadagi rahbarlik davomiyligini ham, sotilgan tovarlarni nazorat qilish samaradorligini ham saqlab qolmaganda;*
- ⊕ *daromad miqdori ishonchli darajada baholanganda;*
- ⊕ *xo'jalik yurituvchi sub'yekt bitim bilan bog'liq iqtisodiy naf olishi ehtimoli mavjud bo'lganda;*
- ⊕ *bitim bilan bog'liq qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar ishonchli darajada aniqlanadigan bo'lganda.*

Xizmat ko'rsatishni (ishlarni) o'z ichiga oladigan bitim natijasi aniq belgilanadigan bo'lsa, shu bitim bilan bog'liq daromad yillik moliyaviy hisobot tuzish vaqtida bitimning bajarilishi bosqichiga qarab tan olinadi. Bitim natijasi esa quyidagi shartlarni bajarish bo'yicha aniq belgilanishi mumkin:

-  *daromad miqdori aniq baholanishi mumkin;*
-  *xo'jalik yurituvchi sub'yektga bitim bilan bog'liq daromadlarning tushishi ehtimoli mavjud;*
-  *bitimni bajarish chog'ida qilingan xarajatlar va bitimni nihoyasiga yetkazishga doir xarajatlar yuksak ishonchilik darajasi bilan baholanishi mumkin.*


Xizmat ko'rsatishdan keladigan daromad shu operatsiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy samara xo'jalik yurituvchi sub'yekt hisobiga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgandagina tan olinadi. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining xo'jalik faoliyatida erishgan daromadlarini turlari bo'yicha tahlil qilishi va bu ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotlarda iqtisodiy jihatdan o'qiy olishi korxona iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy bo'g'inlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yuqorida keltirilgan asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak "Uzbektelekom" AK Kompaniyasi xizmat ko'rsatishga asoslanganligi uchun faoliyati davomida xizmatdan olinadigan daromadlarni ko'rib chiqamiz. Bunda:

-  *Xalqaro aloqa bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar*
-  *Mahalliy telefon aloqasi*
-  *Kanallar ijarasi*
-  *Mobil aloqa operatorlarini ularash*
-  *Shaharlari, xalqaro telefon aloqasi*
-  *Internet va ma'lumotlar uzatish tarmog'i*
-  *IP-telefoniya*
-  *Simsiz radioulanish*

Yuqorida keltirib utilgan faoliyat turlarining hammasi xizmat turiga kirib 9030 schoti orqali yuritiladi. Bundan tashqari "**"Uzbektelekom" AKni Samarqand filialining** daromadni yetkazib berish payti (sotish payti)da tan olish bu bilan bog'liq bo'lganda buxgalterya nuqtayi nazarida **9000** schoti agarda karxona ko'proq tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullansa **9020, 9030**

schotlariga taluqlidir. Sotigan tovarlarni **2013,2014,2015**- yil ko'rsatkichi o'tgan yilga nisbatan yuqori natijada ekanligi 2.2.4-diagramma orqali ifodalanganda yuqori darajada bo'lganligini ko'rsak bo'ladi.<sup>25</sup>

### 2.1.3-diagramma



**2.1.3-diagramma. “Uzbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Samarqand filiali 2013-2015 yillar sotilgan tovarlar tahlili.**

“Uzbektelekom”AK Samarqand filiali ning faoliyatini urganganimizda quyidagi: yani tumanlar ham Narpay ; Pastdarg'om; Jomboy; Ishtixon; Bulung'ur; Kattaqurg'on shaxar; Qushrobod; Oqdaryo; Payariq; Paxtachi aloqa xizmatlari va boshqa faoliyatdan kelib tushadigan daromadlarni tahlil qilganimizda umumiy kursatkichlari 2015 yil malumotlarida keltirilgan **4 980 006 226** so'mni tashkil qilayapti bu esa yanada karxonaning moliyaviy jihatdan kengaymoqda bunda ko'proq foyda olish mumkin. Buning uchun xaridor va buyurtmachilarni uzimizga jalb qilishimiz yoki filiallarni yanada kengaytirishimiz zarur. “Uzbektelekom”AK Samarqand filiali xizmat ko'rsatayotgan vaqtda:

Dt 4010 Kt 9030 **170 226 314,14 so'm**

Shu tariqa xizmat ko'rsatilib boraveradi mijozga bundan oldin mijoz tomonidan hisobga pul tashlaydi bu daromadga olishning oldin xizmat haqi tulanadi keyin

<sup>25</sup> Illovgaga qaralsin manba mualif tomonidan tayyorlandi

xizmat qilinadi “*Uzbektelekom*”AK *Samarqand filialining* hisob kitob schotiga mijoz tomonidan pul tashlanishiga quyidagicha buxgalteriya o’tkazmasi beriladi.

Dt 5110 Kt 6310 **3 160 089,22** so’mga


Oy oxirida qancha xizmat qilindi va mijoz tomonidan qancha pul kelib tushgani aniqlanib bunda mijoz tomonidan kelgan tushumlar 6310 schotida kurinadi mijozga xizmat esa 4010 schoti orqali aniqlanib ikki schot bir biri bilan korrespondentlanadi, agarda mijozning puliga loyiq xizmat qilinmagan bo’lsa keying oyga o’tganda 4010 schoti bilan xizmat qilinadi va 6310 schotini yopadi. Agar mijoz yan hisobga pul tashlasa huddi shu tarzda hisobga olinib xizmat qilinaveradi. Bu 2.1.2-jadvalda 4010 schoti bilan bog’liq schotlari keltirilgan ya’ni 4010 schotiga koresspondentlangan schotlar

Kor.schot	Kredit schot	Debit schot
<b>Bosh.qoldiq</b>	<b>7 887 264,98</b>	
<b>6300</b>	<b>3 160 089,22</b>	<b>206 870 940,93</b>
<b>6310</b>	<b>3 160 089,22</b>	<b>206 870 940,93</b>
<b>6400</b>	<b>34 371 355,95</b>	
<b>6410</b>	<b>34 371 355,95</b>	
<b>9000</b>	<b>170 226 314,14</b>	
<b>9300</b>	<b>1 630 465,67</b>	
<b>9390</b>	<b>1 630 465,67</b>	
<b>Abarot</b>	<b>209 388 224,98</b>	<b>206 870 940,93</b>
<b>Ox.qoldiq</b>	<b>10 404 549,03</b>	

**2.1.2-jadvalda.** 4010 schoti bilan bog’liq schotlar

**2.1.2-jadvalda** keltirilgan malumotlar asosida 6310 schotida **3 160 089,22 so’m** lekin 9030 schoida esa **170 226 314,14 so’m** keltirilgan bu schotda faqat xizmat ko’rsatishdan olingan so’mma emas u schotda tovarlar sotishdan olingan daromad ham bor.


Biz “*Uzbektelekom*”AK *Samarqand filialining* 4010-debetorlik qarzlarini tahlil qiladigan bo’lsak quyidagilarni ko’rishimiz mumkin. (2.1.4-diagramma)<sup>26</sup>



**2.1.4-diagramma.** “*Uzbektelekom*”Aksiyadorlik kompaniyasi Samarqand filialida 4010 diagramma tahlili.

Shu urunda 9310 schoti bilan bog’liq bo’lgan yani asosi faoliyatdan olingan daromadlar ham bor yani qisqa qilib diagramma orqali tahlil qilamiz bunda:

### 2.1.5-diagramma



**2.1.5-diagramma.** Bu diagrammada daromadlar tarkibi qanchadan ekanligini bilsak bo’ladi. Asosiy faoliyatning qo’shimcha daromadlari tarkibi quyidagilarda namoyon bo’ladi. (**2015 yil malumoti asosida**)


<sup>26</sup> Illovaga qaralsin mualif tomonidan tayyorlandi.

- asosiy vositalarning chiqib ketishidan daromad;*
- boshqa aktivlarning chiqib ketishidan daromad;*
- undirilgan jarima, peniya va ustamalar;*
- o'tgan yillar foydasi;*
- operativ ijaradan daromadlar;*
- kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar;*
- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari;*
- tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam;*

“Uzbektelekom” Aksiyadorlik kompaniyasi Samarqand filialida 9310 schotida asosiy faoliyatdan olinadigan qo’shimcha daromadlar yuqorida keltirilgan umumiy daromadlar 2.1.5-diagramada 1% ni tashkil qilayapti. Quyidagi misolida buxgalteriya o’tkazmasi beriladi : (**2015 yil malumoti asosida**)

**Dt 4010,4820,5110,2810 Kt 9300 1 630 465,67 so’mma**

Bundan ko’rinadiki asosiy faoliyatning boshqa daromadlar kam bo’lgan 2015 yil malumotlarida. **2014** -yil malumotlarida esa asosiy faoliyatning boshqa daromadlar **2015-** yilga nisbatan ko’p bo’lgan bu ko’rsatkichlarni quyidagi **2.1.6-diagramma** orqali ifodalaymiz. (**2014 yil malumoti asosida**)<sup>27</sup>



**2.1.6-diagramma.** Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlari foiz ko’rsatkichida ifodalanishi.

<sup>27</sup> Illovara qaralsin mualif tomonidan tayyorlandi.

Boshqa pul tushumlari **2 606 332,92** so'mmada chiqimi esa **288 189,17** so'mmada. Jami asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlari kirimni aniqlash uchun (kirimdan-chiqimni ayiramiz). **10 750 000 + 260 633 292 - 28 818 917 = 242 564 375.** Kurs ishining ob'yekti hisoblangan "Uzbektelekom" AK da 2015-yilda asosiy faoliyatga oid daromadlarni tahlil qilish jarayonida shunga amin bo'ldikki, "Uzbektelekom" AKni Samarqand filialining yalpi daromadi tarkibida eng katta hissa asosiy faoliyatdan olingan daromadlarga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich yalpi daromadning **98,65%** ini tashkil qilib, unda asosan xizmat ko'rsatishda oladigan daromad orqali erishilgan.<sup>28</sup>

**"Uzbektelekom" AKni Samarqand filialida asosiy faoliyatdan olingan umumiy daromadlarning tahlili (ming so'm)**

**2.1.3-jadval.**

Nº	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Jamidagi ulushi, %	Hisobot davrida	Jamidagi ulushi, %	Farqi(+;-)	O'sish surati, %
1	Yalpi daromad	<b>3527651</b>	100,0	<b>3195331</b>	100,0	-332320	<b>-10.5%</b>
2	Xizmat ko'rsatishdano.s/t	<b>9283925</b>		<b>8361650</b>		-922275	<b>-11%</b>

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yalpi daromaddan tushgan tushum **3 195 331** tashkil qilgan ya'ni moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkich shu tahlil qilinayotgan yilda korxonaning balans ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, tayyor mahsulotlar realizatsiyasi o'tgan yilga nisbatan -10.5% hissa kamaygan. Lekin, sotishdan olingan sof tushumning o'sish surati undan ko'proq. Bunga korxonaning to'laydigan soliqlarini kamayganligi ta'sir etgan bo'lsa-da, korxona mahsulot realizatsiyasining ko'payganligi sof tushumning o'tgan yilga nisbatan kamayishga olib keldi. 2013 yil **6974 240,00** so'm bo'lgan 2014 yila kelib **9 283 925,00** so'mga ko'paygan lekin 2015 yilga esa **8361650** so'mga kamayganligi foizda esa nisbatan -11% ga.

<sup>28</sup> Ilovaga qaralsin. manba mualif tomonidan M.Natijalar asosida taylorlandi.


**“Uzbektelekom”AKni Samarqand filialida** faoliyatining kattagina qismi xizmat ko’rsatish sohasiga to’g’ri keladi. Ko’pgina xo’jalik yurituvchi subyektlar singari ishlab chiqarish korxonalarida ham korxonaning asosiy faoliyatidan olinadigan daromadlaridan tashqari, moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar muhim obyektlaridan biri sanaladi.

Biz **“Uzbektelekom”AKni Samarqand filialida** 2015 yil ga nisbatan moliyaviy faoliyat bulmaganini aniqlashtirdik. 2014 yilga bu faoliyat buyicha daromad olingan “Uzbektelekom”AKni Samarqand filialida 2.1.4-jadval ma’lumotlariga ko’ra molyaviy faoliyat buyicha tushumlarni tahlil qilamiz. Shundan ko’rinib turibdiki, moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari **22 044 403,00** jami moliyaviy faoliyatning sof tushumlari kirimi esa **10 492231,96** so’mmanni tashkil qiladi. “Uzbektelekom”AKni Samarqand filialida da hisobot davri mobaynida asosiy faoliyatning qo’shimcha daromadlari shulardan iborat:

#### **2.1.4 -jadval (ming so’mda)**

Molyaviy faoliyat		kirim	chiqim
<b>olingan va tulangan foizlar</b>	110		<b>903 106,44</b>
<b>olingan va tulangan devidintlar</b>	120		<b>2 356 405,50</b>
<b>uzoq muddatli ijara buyicha pul tushumlari ch</b>	160		<b>8 159 185,90</b>
<b>Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari</b>	170	<b>22 044 403</b>	<b>133 473,20</b>
<b>Jami moliyaviy faoliyatning sof tushumlari k.</b>	180	<b>10 492 231 ,96</b>	

**2.1.4 -jadval .** Qisqartirilgan moliyaviy faoliyat. “Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar” 32 536 634.96 so’mmanni tashkil qilayapti.




**2.2.7-diagramma.** Moliyaviy foliyatning foiz ko’rsatkichida ifodalanishi.

**Manba:** 2014-yil Korxona moliyaviy natijalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi. “Uzbektelekom”AKni Samarqand filialida ning asosiy faoliyatdan olgan yani sotilgan (xizmat ko'lrsatilgan) yillik so'mmasi 2014 yilda **597 919,37** tashkil qiladi. Investitsion faoliyatidan esa **242,564,375** so'mmani va moliyaviy faoliyatdan esa **10 492 231,96** tashkil qildi .Bu ko’rsatkichlar o’tgan yilga nisbatan yuqori darajada ekanligini yuqoridagi jadval va diogrammalar orqali isbotladi.

## 2.2 Aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi karxonalarida xarajatlar hisobi

**Xarajat** - deganda, hisobot davrida korxona aktivlarini kamayishi yoki uning majburiyatlarini ko'payishi tushuniladi. Korxonalarning barcha xarajatlari respublikamizda qabul qilingan BHMS lar va «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom»ga va unga kiritilgan. Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagicha guruhlanadi. **Asosiy faoliyatga doir xarajatlar** deganda korxona ustavida belgilangan asosiy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlar tushuniladi.

Korxonalarning asosiy faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni, o‘z navbatida, quyidagi to‘rtta quyi guruhga ajratiladi: o‘zgartirishlar va qo‘srimchalarga muvofiq ikkita guruhga va oltita quyi guruh ga ajratilgan (quyidagi **2.2.1-chizmaga** qarang).



### 2.2.1-chizma . Korxona xarajatlarining tasnifi

**Sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar** – bularga sotilgan mah sulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarning tannarxiga kiritilgan xarajatlar kiradi.

**Korxona xarajatlari bo‘yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- ⊕ xarajatlarni ularning mohiyatini oshib beruvchi mezonlariga mos ravishda hisobga olish;
- ⊕ korxona xarajatlarini to‘g‘ ri turkumlash va guruhlarga ajratish;
- ⊕ sotish tannarxini, davr xarajatlarini oshib ketishiga sabab bo‘luvchi noratsional chiqimlarni vujudga kelish sabablari va aybdorlarini topish, bunday chiqimlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ma’sul shaxslar faoliyatini doimiy nazorat qilish;
- ⊕ mavjud zaxiralar va vositalaridan unumli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatish;
- ⊕ xarajatlarni soliq solish bazasi ob’ekti sifatida to‘g‘ ri shakllantirish;
- ⊕ xarajatlarni hisoblash tamoyiliga muvofiq ular yuz bergan vaqtdan boshlab tan olish va tegishli schyotlarda aks ettirish;
- ⊕ xarajatlarni moliyaviy hisobotda to‘g‘ ri aks ettirish va boshqalar.

**2.2.1-chizmada** korxona xarajatlarining tasniflanganligini ko’rdik “Uzbektelekom”AKni Samarqand filialida faoliyati xizmat ko’rsatishga asoslanganligi sababli mijozlarga xizmat ko’rsatayotgan paytda asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga olib boramiz bunga bzga 2010 schoti bilan bog’liq bo’ladi. **2010** schotiga yani bunda krediti tomonida **0210,1010,3110,4220, 5110, 6010,6110,6710, 6910, 9110** bilan bog’liq ravishda koresspondentlangan. Shunga mos ravishda 2010 schotiga umumiylar **2 426 954 385, 31 so’mmasi** yig’ilgan. Yuqorida keltirilgan schotlar bilan bo‘g’liq buxgalteriya o’tkazmalarini ko’rib chiqamiz bunda: (*ming so’mda*)

⊕ “*Tugallanmagan ish.chiqarish o’sishiga*”

*Dt 2010            Kt 9150 669 933 723,41*

⊕ “*Eskirish hisoblanishiga* ”

*Dt 2010            Kt 0220 154 089 707,28*

 “Materiallar kirimiga ”

*Dt 2010      Kt 1010    390 691 653,83*

 “Ish haqi hisoblanishiga ”

*Dt 2010      Kt 6710    758 007 039,52*

 “Boshqa xarajatlar ”

*Dt 2010   Kt 6990      53 155 182,40*

 “Sug’urta va maqsadli jamg’armalarga”

*Dt 2010   Kt 6510      189 761 341,53*

 “Hisobdor shaxslar tomonidan amalga oshiradigan ish.xarajatlari”

*Dt 2010   Kt 4220    12 999 379,00*

 “Ajratilgan bo’linmalar, shuba qaram xo’jalik jamiatlarining as.ish. ehtiyojlariga qilingan xarajatlariga ”

*Dt 2010   Kt 6110    22 347 191,06*

 “Kelgusi davr xarajatlar sifatida aks ettirilgan xarajatlarning tegishli ulushi xizmat tannarxiga olib borilganligiga ”

*Dt 2010   Kt 3110    18 253 846,15*

 “Tug’ridan tug’ri ishlab chiqarishga taminotchidan olindi”

*Dt 2010   Kt 6010    156 370 866.88*


 “Qilinga xizmat tannarxini hisobdan chiqarish”

*Dt 9110   Kt 2010   umumiyo so’mmaga 2 426 954 385, 31*

Yuqoridagi buxgalteriya o’tkazmalari “Uzbektelekom”AKni Samarqand filialining ishlab chiqarishga ketgan schotlarda aks ettirilgan so’mmalrn ni ko’rib chiqib va aks ettirdik. Aks ettirilgan 9110 schoti oyning oxiriga va yilning oxiriga 9910 schoti bilan yopiladi. **Dt 9910   Kt 9110   2 426 954 385, 31**

Mijozlarga qilinadigan xizmatlarda keltirib o’tadigan xarajatlar ulushini **2.2.8-diagrammada** aks ettirib foizda ifodalaymiz.

## Mijozlarga qilingan xizmatlarga ketgan xarajatlar




**2.2.8-diagramma.** Mijozlarga qilingan xizmatlarga kiritilgan xarajarlar yig'indisi bu umumiy ko'rinishdagi xarajatlar.<sup>29</sup> “*Uzbektelekom”AKni Samarqand filialining* “Moliyaviy natijalar ”dagi xarajatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak 2014 va 2015 yillar bo'yich ko'ramiz. (*ming so'mda*)

**2015 yil 9110 schotimizda 5 166 319- (2014 yil) 5 756 274= -589955**

**“Uzbektelekom”AKni Samarqand filialining davr xarajatlari bo'yicha ko'rib chiqamiz:** 2015 yil 9410 schotimizda 3 897 836- (2014 yil) 3 698 922=198914 xarajatlarni o'rGANIB chiqsak 2015 yil tannarxda 2014 yilga nisbatan 589955 so'mmaga kamaytirilganligini ko'rdik bundan shunday natija bulishi mumkin tannarxni kamaytirish orqali mijozlarga imkon darajada imkoniyatlarva imtiyoz berish orqali yuqori natijada foyda olishga qaratilgan. Aksincha davr xarajatlarimiz 2014 yilga nisbatan 2015 yilda oshganligi bizga malum bo'ldi.

2015 yil davr xarajatlarini tahlil qilib chiqamiz bunda xarajatlarni taqsimlab chiqamiz va **2.2.9-diagramma** orqali ifodalab chiqamiz.

<sup>29</sup> Manba mualif tomonidan tayyorlandi malumotlar asosida



**2.2.9-diagramma.** Davr xarajatlarning umumiyo ko'rinishi bu xarajatlar orasida eng ko'p qilingan xarajat 9430 schotdagi yani "boshqa operatsion xarajatlar" aks ettirilgan<sup>30</sup>.

"*Uzbektelekom"AKni Samarqand filialining* moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni ko'rib chiqamiz bunda moliyaviy natijalar malumotlariga tayanib foiz ko'rinishdagi xarajatni aniqlaymiz. Foiz ko'rinishdagi xarajatlar hisobining aperatsiyalari quydagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali beriladi.

"Foiz ko'rinishidagi xarajatlari" (*ming so'mda*)

**Dt 9610              Kt 6920  5485 so'm**

**Dt 6920              Kt 5110  5485 so'm**

**Dt 9910              Kt 9610**

Shu "*Uzbektelekom"AKni Samarqand filialining* 2015 yil balansni ko'rib chiqamiz chunki har bir balans orqali korxonaning keying davr uchun ishlash qobiliyati borligi yoki yuqligi o'zining faoliyatini moliyaviy taminlay olish qobiliyatiga ega ekanligini bilish lozim. Xizmat ko'rsatishdan keladigan daromad shu operatsiya bilan bog'liq bo'lган iqtisodiy samara xo'jalik yurituvchi sub'yekt hisobiga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgandagina tan olinadi. Hozirgi zamon

<sup>30</sup> Manba mualif tomonidan tayyorlandi malumotlar asosida

talabidan kelib chiqib, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining xo'jalik faoliyatida erishgan daromadlarini turlari bo'yicha bu ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotlarda iqtisodiy jihatdan o'qiy olishi korxona iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy bo'g'inlaridan biri sifatida qaralmoqdan bundan tashqari nafaqat investitsiya kirgizish uchun investorlar tomonidan (F1va F2) hisobot shakillarini ko'rib undan foyda olish borligini aniqlab keyin mablag'larini kiritish mumkin. Shunga asoslanib hisobot shakillaridan korxonaning buxgalteriya balansidan olinadi. Shu sababli "Uzbektelekom"AKni Samarqand filialining buxgalteriya balansini keltirib o'tamiz (1-jadval).<sup>31</sup>

**"Uzbektelekom"AKni Samarqand filialining buxgalteriya balansi**

### 2.2.5-jadval

**ming so'mda** (Jadval ma'lumotlari \_\_\_\_ ilovadan olingan)

Aktiv	Passiv		
<b>Uzoq muddatli aktivlar</b>	<b>3579129,00</b>	<b>Xususiy kapital</b>	<b>2 454 547,00</b>
<b>Joriy aktivlar</b>	<b>4214 484,00</b>	<b>Majburiyatlar</b>	<b>5 339 066,00</b>
<b>Balans</b>	<b>7793 613,00</b>	<b>Balans</b>	<b>7 793 613,00</b>


### 2.2.5-jadval. "Uztelekom"AK balans ko'rsatkichlari

"Uztelekom"AK balansiga qaraydigan bulsak o'tgan yilga nisbatan balans moddalari kupaygan buni 2.1.3-diagramma orqali ham ifodalasak bo'ladi.<sup>32</sup> Ifodalangan balans ko'rsatkichi 2014, 2015 yillarda ifodalangan balans ko'rsatkichi hisoblanadi.

<sup>31</sup> \_\_\_\_ Ilovaga qaralsin manba mualif tomonidan tayyorlandi.

<sup>32</sup> \_\_\_\_ Ilovaga qaralsin manba mualif tomonidan tayyorlandi.

### 2.1.3-diagramma



**2.1.3-diagramma.** “Uzbektelekom” AKni Samarqand filialining balans ko’rsatkichlari 2012-2014-2015 yillari.<sup>33</sup>

### 2.3 Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi karxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yullari.

Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha quydagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ⊕ Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalar xususiyatidan kelib chiqib maxsus hisob siyosatini ishlab chiqish;
- ⊕ Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalar xususiyatidan kelib chiqib ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish;
- ⊕ Xujjatlar aylanish tizimini takomillashtirish;
- ⊕ Xizmatlar tannarxini turli kalkulyasiya usullaridan foydalanib hisob kitob qilish;
- ⊕ Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarning boshqa xarajatlari tarkibini doimiy ravishda nazorat qilish.

<sup>33</sup> asosida mualif tomonidan tayyorlandi.

Aytib utganimizdek aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar xususiyatidan kelib chiqib maxsus hisob siyosatini ishlab chiqish kerak hamma aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda bir xil bulishliyligi va boshqaruv hisobida karxonaning uziga kerakli hisobni yuritish mumkin. Albatta hisob siyosatiga qarshi bulmasligi va hisobatni taqdim etiyotganda hisob siyosatiga amal qilishi shart.

Aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar xususiyatidan kelib chiqib ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqishda masalan: Buxgalteriya hisobi schotlariga bazi o'zgartirishlar kiritish orqali va shu schotlar orqali sentitik schotlar ochib yuritish mumkin. Yoki buxgalteriya hisobi schotlarini o'zgartirmasdan sentitik schotlar ochib yuritish mumkin.

Xujjalr aylanish tizimini takomillashtirishda aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda xujjalr taqsimlash bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar o'rtaida xujjatlarni axborotlar shaklida almashtirish, kompyuterda boshlang'ich hujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari yaratish va boshqaruv masalalarining vazifalararo majmualari vujudga keltirish kerak.

Xizmatlar tannarxini turli kalkulyasiya usullaridan foydalanib hisob kitob qilish; bunda xizmat ko'rsatuvchi karxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda foydalanayotgan usullardan foydalansak yani aloqa karxonalarga nisbat qilib olsak.

Aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining boshqa xarajatlari tarkibini doimiy ravishda nazorat qilish funksiyasini ishlab chiqish kerak: Masalan "Uztelecom AK" faoliyatiga taaluqli xarajat va daromadlar tarkibi doimo o'zgarib boradi. Funksiyada nazorat punkti bulsa usha punkt orqali yildan yilga qanchaga xarajat yoki daromad oshganligini elektron aloqa vositasi orqali uzatib tursa bu uchun alohida aloqa korxonalarining buxgalterya hisobida funksiya punkiti bo'limi bo'lsa maqsadga muofiq bo'lardi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini rivojlantirish har bir korxona tashkilotning vazifasi hisoblanadi.

Korxona va tashkilotlar xo'jalik faoliyatini idora etish maqsadida ma'lumotlarni olish, ularni guruhlab, boshqaruvni ushbu ko'rsatkichlar bilan ta'minlash, keljakda korxona tashkilotlar faoliyatiga baho berish uchun, hisob-kitob hujjatlarida aks ettirish yo'li bilan o'z faoliyatini rivojlantirib boradilar.

Mamlakatimiz va xorij davlatlari buxgalteriya hisobi bo'yicha iqtisodchi olimlar o'z ishlarida buxgalteriya hisobi mohiyati bo'yicha har xil talqinlar beradilar. Masalan, M.Umarova, O'.Eshboev va K.Axmadjonov fikrlari bo'yicha: «Buxgalteriya hisobi bu kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida ayrim korxona, aksiyadorlik jamiyati, muassasa, tashkilot va boshqalarning xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat». Bizning fikrimizcha, bu buxgalteriya hisobi mohiyati va maqsadini to'liq yoritmaydi, chunki turli foydalanuvchilarni to'liq ma'lumot bilan ta'minlash maqsadida hisob barcha korxonalarda olib borilishi lozim.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirish, moliyaviy holatini yaxshilash ular xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni son jihatdan tavsiflash, bu ko'rsatkichlar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayda etish va umumlashtirish hamda hujjatlarda rasmiylashtirishni taqozo etadi. Mazkur masalalarni xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda bevosita xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish ushbu korxonalarda hisob-kitob ishlarini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Xixmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgateriya hisobining hozirgi holatini tahlil qilish uchun uni takomillashtirishdagi mavjud muammolarni quyidagilarga ajratish imkonini beradi.

- *buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini rivojlantirishga doir muammolar;*
- *buxgalteriya hisobi borasidagi nazariya amaliy muammolarni aniqlash;*
- *buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini takomillashtirish;*
- *buxgalteriya hisobining tashkiliy muammolarini belgilash.*

Bitiruv malakaviy ishiga aloqador korxonalar ya’ni xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini rivojlantirishga doir muammolar ularda o qilona hisob siyosatini tashkil etish, yangi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish, tovar (ish, xizmat)ni sotish bahosini shakllantirish, soha xususiyatlariga asoslangan holda moliyaviy, statistik, soliqlar va boshqa hisobot shakllarini tuzish uslubini yaratish kabi masalalar bilan bog’liq.

Tadqiqotlarning ko’rsatishicha, mazkur xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini takomillashtirishda ham ayrim muammoli jihatlar mavjud. Jumladan, ayni paytda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar tamoyillariga muvofiqlashtirish xizmat korsatuvchi korxonalarida moliyaviy hisobot shakllari axborot hajmini oshirish, inventarizatsiya tekshiruvi asosida aniqlangan tovarlar kamomadini to’g’ri rasmiylashtirish bo’yicha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashirishni taqozo etmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini oqilona tashkil etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni yechimini topishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:


- ⊕ **xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda nazariy-amaliy jihatdan asoslangan hisob siyosatini shakllantirish:**
- ⊕ **xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda hisob tizimini jahon tajribasidan kelib chiqqan holda moliyaviy va boshqaruvin hisobiga ajratish hamda ularni yuritish tartibini belgilab olish.**

Xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda hisob siyosatini oqilona tashkil etish korxonada buxgalteriya hisobini rivojlanishiga o’z hissasini qo’shamdi. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va umumiyligida qoidalar korxonalarning mulkchilik shakli hamda faoliyat ko’rinishidan qat’i nazar barcha uchun bir xilda amal qiladi. Hisob siyosatida ushbu qonunlar va umumiyligida qoidalardan kelib chiqqan holda, korxona uchun maqbul yo’nalish tanlanadi. Bu yo’nalish korxonaning huquqiy shakli, tarmoq xususiyati, faoliyatining g’arbasi,

xodimlarning malakasi va boshqa o'ziga xos jihatlarni ifodalovchi hisob siyosatini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Amaliyotda hisob siyosatini davlat va alohida korxona miqyosida tashkil etish ko'rinishlari mavjud. Hisob siyosatini quyidagi tarkib bo'yicha yuritish maqsadga muvofiq: **2.3.2-chizmada**

- + *Umumdavlat miqyosida (1-daraja);*
- + *Tarmoq ya'ni iqtisodiyotning ayrim sohalari miqyosida (2,3 va 4-darajalar);*
- + *Alohida olingen korxona miqyosida (5-daraja);*



### **2.3.2-chizmada.Hisob siyosatining tarkibiy jadvali.**

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini rivojlantirishda ular tomonidan mustaqil qabul qilingan hujjatlar ham alohida ahamiyatga ega. Bularga buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar va boshqa ichki tartibni belgilovchi hujjatlarni kiritish mumkin. Ta'kidlaganimizdek, bunday hujjatlar asosan boshqaruv hisobi hususiyatlarini ifodalaydi va korxona boshqaruvining talablaridan kelib chiqadi.

### ***III-Bob “UZTELEKOM”AKda audit o’tkazish tartibi***

#### ***3.1 “UZTELEKOM” AK da daromadlar auditи***